



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aйтиева Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	



AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Laylo Akbarova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

ORCID: 0000-0001-7568-4687

E-mail: akbarova1965@gmail.com

Komolov Adxam Dilshod o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada avtotransport korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ularni yaxshilashga ta'sir etuvchi omillar ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida tannarx, foyda, rentabellik, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi hamda mehnat unumdorligi kabi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar chuqur tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitidagi avtotransport korxonalarining amaldagi holati xorijiy tajribalar bilan taqqoslanib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari avtotransport korxonalarida boshqaruv qarorlarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: avtotransport korxonasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, tannarx, foyda, rentabellik, transport samaradorligi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the key economic indicators of road transport enterprises and examines the factors influencing their improvement. The study focuses on major economic indicators such as service cost, profit, profitability, efficiency of fixed assets utilization, and labor productivity. The current state of road transport enterprises in Uzbekistan is compared with international practices, and practical recommendations aimed at enhancing economic efficiency are proposed. The research findings have significant theoretical and practical value for improving management decision-making in road transport enterprises.

Key words: road transport enterprise, economic indicators, cost, profit, profitability, transport efficiency.

Аннотация. В статье проведён комплексный анализ основных экономических показателей автотранспортных предприятий и исследованы факторы, влияющие на их улучшение. В ходе исследования рассмотрены такие ключевые показатели, как себестоимость, прибыль, рентабельность, эффективность использования основных фондов и производительность труда. Текущее состояние автотранспортных предприятий в условиях Узбекистана сопоставлено с зарубежным опытом, а также разработаны практические рекомендации, направленные на повышение экономической эффективности. Результаты исследования могут быть использованы при совершенствовании управленческих решений в деятельности автотранспортных предприятий.

Ключевые слова: автотранспортное предприятие, экономические показатели, себестоимость, прибыль, рентабельность, эффективность транспорта.

KIRISH

O'zbekiston sharoitida avtomobil transporti yuk va yo'lovchi tashish bozorida yetakchi o'rinni egallab, transport xizmatlari umumiy hajmining asosiy qismini tashkil etadi. Shunga qaramasdan, mahalliy avtotransport korxonalarida tannarxning yuqoriligi, parkdan foydalanish koeffitsiyentining pastligi, mehnat unumdorligining yetarli darajada oshmasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolar xorijiy tajriba bilan taqqoslanganda yanada yaqqol namoyon bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda avtotransport korxonalarining iqtisodiy samaradorligi asosan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, raqamli monitoring tizimlari hamda xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlari hisobiga ta'minlanayotgani kuzatiladi. Ushbu tafovut ilmiy tadqiqotlar orqali chuqur tahlil qilinishi zarur bo'lgan muhim ilmiy bo'shliqni yuzaga keltiradi.



Mazkur tadqiqotning obyekti avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish-xo'jalik va moliyaviy faoliyati jarayonidir. Tadqiqotning predmeti esa avtotransport korxonalarida shakllanadigan iqtisodiy ko'rsatkichlar — transport xizmatlari tannarxi, foyda, rentabellik, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi, parkdan foydalanish koeffitsiyenti hamda mehnat unumdorligi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi avtotransport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda xorijiy tajriba asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- avtotransport korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari mazmuni va baholash mezonlarini ilmiy jihatdan asoslash;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarning hozirgi holatini statistik va tahliliy usullar asosida o'rganish;
- iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni tizimli va taqqoslama tahlil qilish;
- O'zbekiston sharoitidagi holatni xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirish;
- tahlil natijalari asosida iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi avtotransport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli yondashuv asosida ochib berilishi, xarajatlar hamda parkdan foydalanish samaradorligini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlari aniqlanishi, shuningdek, xorijiy tajriba bilan taqqoslash asosida mahalliy sharoitga moslashtirilgan takliflar ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar avtotransport korxonalarida iqtisodiy tahlilni chuqurlashtirish, xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin.

Avtotransport korxonalari mamlakat iqtisodiyotining muhim infratuzilmaviy bo'g'ini hisoblanib, yuk va yo'lovchi tashish orqali ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohasining uzluksiz faoliyatini ta'minlaydi. Iqtisodiy globallashtirish, bozor munosabatlarning chuqurlashuvi hamda logistika jarayonlarining murakkablashuvi sharoitida avtotransport korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, transport xizmatlari tannarxining yuqoriligi, asosiy fondlarning eskirishi, yoqilg'i-moylash materiallari sarfining oshishi va mehnat unumdorligining yetarli darajada bo'lmaligi mazkur sohada iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilishni talab etadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtotransport korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari iqtisodiyot va transport menejmenti bo'yicha ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A. Abdug'aniyev transport korxonalarining samaradorligi ko'p jihatdan asosiy fondlardan foydalanish darajasi hamda ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [2]. Muallif transport vositalarining texnik holati va ularning yuk bilan bandlik darajasi iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab bergan.

Shuningdek, R.X. Alimuhamedovning transport iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida avtotransport xizmatlari tannarxini shakllantiruvchi omillar tizimli tahlil qilingan bo'lib, yoqilg'i sarfi, amortizatsiya ajratmalari hamda mehnat xarajatlari asosiy xarajat moddalarini tashkil etishi ko'rsatib berilgan [3]. Ushbu yondashuv avtotransport korxonalarida xarajatlarni kamaytirish orqali rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa P. Button transport iqtisodiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida transport xizmatlari samaradorligini baholashda ishlab chiqarish xarajatlari va xizmat sifati o'rtasidagi muvozanat muhim ekanligini asoslaydi [4]. Muallifning fikricha, iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi nafaqat moliyaviy natijalar, balki tashish ishonchiligi va vaqt tejamkorligi bilan ham uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga, J. Rodrigue transport va logistika tizimlarini tahlil qilishda transport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari bozor talablariga moslashuvchanlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini qayd etadi [5]. Ushbu ilmiy qarashlar avtotransport korxonalarining iqtisodiy holatini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida iqtisodiy tahlilning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, taqqoslash usuli orqali avtotransport korxonalarining turli davrlardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi. Ushbu usul yordamida tannarx, foyda va rentabellik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniqlanib, ularning dinamikasi baholandi.

Statistik tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari o'rganildi hamda transport xizmatlari hajmi va ulardan olinadigan daromad ko'rsatkichlari tahlil qilindi [6]. Shuningdek, tizimli



yondashuv asosida iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Ushbu metodologiya tahlil natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda transport xizmatlari bozori tarkibida avtomobil transporti yetakchi o'rinni egallaydi. 2025-yil yanvar–sentyabr oylarida transport xizmatlari hajmi 133 590,7 mlrd so'mni tashkil etib, uning tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ulushi 50,3 foizni tashkil qilgan [7]. 2025-yil yanvar–dekabr yakunida esa transport xizmatlari hajmi 188,3 trln so'mga yetgani, avtomobil transporti xizmatlari ulushi 50,9 foizni (95,9 trln so'm) tashkil etgani qayd etiladi [8]. Mazkur holat avtotransport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari — tannarx, foyda, rentabellik, parkdan foydalanish darajasi va mehnat unumdorligini chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [9].

Amaliyotda ko'p uchraydigan holatlardan biri tashish hajmining ortishi fonida foyda va rentabellikning kutilgan darajada oshmasligidir. Bunga asosiy sabab sifatida ekspluatatsiya xarajatlarining — yoqilg'i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar, ta'mirlash ishlari, amortizatsiya, sug'urta hamda haydovchilar mehnati bilan bog'liq xarajatlarning daromadga nisbatan tezroq o'sishini ko'rsatish mumkin. M.B. Kalonov avtotransport korxonalarida xarajatlari hisobi va tahlilini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy ishlarida aynan xarajatlarning "qayerda va nima sababdan oshayotgani"ni aniqlashga qaratilgan boshqaruv tahlili mexanizmlarining yetishmasligi rentabellikning pasayishiga olib keluvchi muhim omillardan biri ekanini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv "ko'p reys — ko'p foyda" degan soddalashtirilgan tasavvur doimo o'zini oqlamasligini, rentabellikni baholashda xarajatlar tuzilmasi va boshqaruv sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [10].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda avtotransport korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda uchta asosiy yo'nalish takroran ta'kidlanadi. Birinchidan, tannarxni pasaytirish, jumladan, yoqilg'i sarfi, ta'mirlash xarajatlari va amortizatsiya ajratmalarini optimallashtirish; ikkinchidan, parkdan foydalanish koeffitsiyentini oshirish orqali bekor turish va bo'sh yurishlarni kamaytirish; uchinchidan, boshqaruv qarorlarini tahliliy asosda qabul qilish, ya'ni reja–fakt tahlili va xarajat markazlari kesimida monitoringni yo'lga qo'yish [9][10]. D.B. Djabborov, Sh.T. Xudoyorov va O.R. Pardayev tomonidan tayyorlangan "Avtomobil transporti korxonalari iqtisodiyoti" manbasida tannarx, foyda, rentabellik, fond qaytimi va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlarni hisoblash hamda ularni yaxshilash yo'llari tizimli yoritilgan bo'lib, korxona faoliyatini "ko'rsatkichlar tizimi" asosida boshqarish zarurligi asoslab beriladi [9]. Kalonovning dissertatsiya yo'nalishidagi tadqiqotlari ham avtotransport korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish masalasini mustaqil ilmiy muammo sifatida ko'tarib, tannarxni pasaytirish orqali rentabellikni oshirishning metodik asoslarini kuchaytiradi [11].

O'zbekistonda avtotransport korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ajratiladi. Ichki omillarga, avvalo, avtoparkning eskirishi kiradi, bu holat yoqilg'i sarfi va ta'mirlash xarajatlarini oshirib, avtomobillarning bekor turishiga olib keladi hamda natijada tannarxning ortishi va foydaning kamayishiga sabab bo'ladi [10]. Parkdan foydalanish koeffitsiyentining pastligi ham muhim omil bo'lib, avtomobillar bandligi yetarli darajada bo'lmaganda doimiy xarajatlar bir birlik xizmatga nisbatan qimmatlashadi va rentabellik pasayadi [9]. Marshrut va yuk oqimini rejalashtirish sifati past bo'lgan sharoitda bo'sh yurish ko'payib, bir xil yoqilg'i sarfi bilan kamroq daromad olinadi, bu esa foydani qisqartiradi [12]. Shuningdek, hisob–tahlil intizomining sustligi, ya'ni reja–fakt tahlili, normativ sarflar hamda yo'nalish, avtomobil va haydovchi kesimida tahlilning yetishmasligi xarajatlarni oshirayotgan bo'g'inlarni aniqlash imkonini cheklaydi va boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi [10].

Tashqi omillar qatoriga yoqilg'i narxlar va ehtiyot qismlar bozoridagi tebranishlar, yo'l infratuzilmasining holati va tirbandliklar, talabning mavsumiyligi hamda yuk oqimining notekisligi, shuningdek, normativ-huquqiy talablar va tarif muhitidagi o'zgarishlar kiradi [8]. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda avtomobil transporti xizmatlar bozoridagi ulush yuqori bo'lishiga qaramay, korxona darajasida rentabellikni oshirish ko'proq ichki omillar — xarajatlar hisobi, parkdan foydalanish darajasi va rejalashtirish sifati bilan belgilanadi [10].

Xorijiy amaliyotda iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashning eng keng tarqalgan mexanizmlaridan biri telematika texnologiyalarini (GPS/OBD), haydovchi xulq-atvorini monitoring qilish hamda marshrutlarni optimallashtirishni boshqaruv qarorlariga bog'lashdan iborat. Transport Canada tomonidan yuk tashish sohasida o'tkazilgan amaliy tadqiqotlar va AQSh Transport vazirligi (DOT) hisobotlarida haydovchilar malakasini oshirish va elektron monitoring orqali bekor ishlash (idling) hamda tezlik rejimi buzilishlarini kamaytirish natijasida yoqilg'i sarfi sezilarli darajada qisqargani qayd etiladi. Bu jarayonda iqtisodiy samara ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: yoqilg'i xarajatlari kamayadi va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari qisqaradi, chunki agressiv haydash va me'yordan ortiq yuklama nosozlik ehtimolini oshiradi [13]. Marshrut optimallashtirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda xarajatlarni hisoblashda masofa bilan bir qatorda vaqt omilini ham monetizatsiya qilish (time-value) yondashuvi taklif etilib, bu ayniqsa tirbandlik darajasi yuqori hududlarda "eng qisqa yo'l" emas, balki "eng arzon yo'l"ni tanlash imkonini beradi [12]. Yevropa tajribasida Intelligent Transport Systems (ITS) yechimlari



harakatni boshqarish, tirbandliklarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish orqali yoqilg'i sarfi hamda zararli chiqindilarni qisqartirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [14]. Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham tatbiq etilishi mumkin, biroq buning uchun telematika ma'lumotlari faqat hisobot shaklida qolib ketmasdan, xarajatlarni pasaytirishga xizmat qiluvchi boshqaruv qarorlariga — KPI tizimi, normativlar hamda rag'bat va javobgarlik mexanizmlariga — aylantirilishi muhimdir [13].

Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda avtotransport korxonalarining asosiy iqtisodiy "rezerv"lari ko'pincha tashqi muhitdan ko'ra korxona ichida — xarajatlar hisobini chuqurlashtirish, parkdan foydalanishni oshirish, bo'sh yurish va bekor turishni kamaytirish hamda yoqilg'i sarfini normativlar asosida boshqarish orqali aniqlanadi [10]. Xorijiy tajribadagi telematika va optimallashtirish amaliyoti esa aynan ushbu ichki rezervlarni tezroq aniqlash, raqamlashtirish va ularni boshqaruv sikliga samarali bog'lash imkoniyati bilan ajralib turadi [14].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, avtotransport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash bir qator tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Avvalo, transport vositalarini yangilash va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ekspluatatsiya xarajatlarni kamaytirish lozim. Shuningdek, yoqilg'i sarfini nazorat qilish hamda marshrutlarni optimallashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mehnat unumdorligini oshirish, raqamli boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish, iqtisodiy tahlil asosida qarorlar qabul qilish amaliyotini kuchaytirish zarur. Ushbu takliflarni amaliyotga tatbiq etish avtotransport korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda transport xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada avtotransport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari va ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida korxonalar faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari — transport xizmatlari hajmi, tannarx, foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi, asosiy fondlardan foydalanish darajasi hamda avtoparkdan foydalanish samaradorligi — o'zaro uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi korxona faoliyatini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqligi asoslab berildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, avtotransport korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tarkibida texnik-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv hamda tashqi muhit omillari yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, transport vositalarining texnik holati, yoqilg'i va ehtiyot qismlar sarfi, reyslarning rejalashtirilishi, logistika jarayonlarining optimallashtirilishi hamda raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish darajasi korxona xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy natijalarni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, haydovchilar va texnik xodimlarning kasbiy malakasini oshirish ham iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar asosida avtotransport korxonalari iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, avtoparkni bosqichma-bosqich yangilash, texnik xizmat ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish, yoqilg'i sarfini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish, logistika jarayonlari va reyslarni rejalashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlil natijalariga tayangan holda strategik rejalashtirishni yo'lga qo'yish korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, avtotransport korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash faqat reyslar sonini oshirish bilan cheklanmasdan, xarajatlarni maqbullashtirish, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv tizimini izchil takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur tadqiqot natijalari avtotransport korxonalarini faoliyatini rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda transport xizmatlari bozorida barqaror o'rin egallashga xizmat qilishi bilan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Transport va logistika sohasini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlar.
2. Abdug'aniyev A.A. Transport iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Alimuhamedov R.X. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlarni boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Button K. Transport Economics. Edward Elgar Publishing.
5. Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. Routledge.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Transport xizmatlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "O'zbekistonda xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari, 2025-yil yanvar-sentyabr" (analitik PDF).
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Key indicators of the service sector in the Republic of Uzbekistan, 2025" (analitik PDF, 2026-yil 20-yanvar).
9. Djabborov D.B., Xudoyorov Sh.T., Pardayev O.R. "Avtomobil transporti korxonalari iqtisodiyoti" (elektron katalog yozuvi).



10. Kalonov M.B. "Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish" (monografiya tavsifi, 2018-yil; ISBN ko'rsatilgan).
11. Interaktiv OAK bazasi. Kalonov M.B.ning avtotransport korxonalarida xarajatlar hisobi bo'yicha dissertatsiya yo'nalishidagi ma'lumotlari.
12. Álvarez P. va boshqalar. "Optimizing freight delivery routes: The time-distance dilemma" (ilmiy maqola, ScienceDirect).
13. AQSh DOT / ROSA. "Study of the Impact of a Telematics System ..." (hisobot; Transport Canada freight case study lariga havola keltirilgan).
14. Yevropa Ittifoqi CINEA / European Commission. "Intelligent Transport Systems in the EU" (ITS samaradorligi va emissiyani kamaytirish masalalari).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>